





## FARG'ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMINING QARORI

№ 98

«15» 02 2021-yil

**Beshariq tumani Rapqon Telov Fayzi MMTP hududidagi tuman hokimligi zaxirasida bo'lgan yer maydonida bog'dorchilik yo'nalishida fermer xo'jaligi tashkil etish uchun tanlovda g'olib bo'lgan fuqaro Mamataliyeva Dilafruz Husanboyevnaga uzoq muddatli ijarada foydalanish uchun yer ajratib berish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2013-yildagi "Fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 22-sonli qarori, tuman hokimligi huzuridagi fermer xo'jaliklariga yer uchastkalarini (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiyasining 29.12.2020-yildagi yig'ilish bayonlariga va Xalq deputatlari Beshariq tumani Kengashining 11.01.2021-yildagi VI-XXV/117-sonli qarorini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Fermer xo'jaligi to'g'risida" gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi Qonunining 6-, 25-moddalariga va to'plangan hujjatlarni ko'rib chiqib, amaldagi yer to'g'risidagi qonunlarga asosan,

### QAROR QILAMAN

1. Tuman hokimligi huzuridagi fermer xo'jaliklariga yer maydonlarini (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiyasining 29.12.2020-yildagi yig'ilish bayonlariga va Xalq deputatlari Beshariq tumani Kengashining 11.01.2021-yildagi VI-XXV/117-sonli qarori asos uchun qabul qilinsin.

2. Rapqon Telov Fayzi MMTP hududidagi 951q, 532q, 948q, 705, 991q-konturlardagi jami; 12.8 gektar shundan: 12.0 gektar bog'lar, 0.2 gektar suv osti yerlari, 0.1 gektar yo'llar, 0.5 gektar boshqa yer maydonlarida bog'dorchilik yo'nalishida fermer xo'jaligi tashkil etish uchun tanlovda g'olib bo'lgan fuqaro **Mamataliyeva Dilafruz Husanboyevnaga** 48 yil muddatga ijarada foydalanish uchun ajratib berilsin hamda yer maydonini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasini rasmiylashtirish vazifasi Kadastr Agentligining Beshariq tuman bo'limi boshlig'i (M.Madaminov) ga yuklatilsin.

3. Beshariq tumani "Davlat xizmatlari markazi" boshlig'i (M.Obidov) ga yangi tashkil etilayotgan fermer xo'jaligini o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman Statistika bo'limi (O.Komilov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (T.Xusanov)larga:

- yagona davlat reestriga kiritish hamda soliqlar to'lanishi va hisobotlarni topshirilishini nazorat qilish vazifalari yuklatilsin.

6. Tuman tijorat banklari rahbarlariga yangi tashkil etilayotgan fermer xo'jaligiga bankda hisob raqam ochish topshirilsin.

7. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Artyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



R.Jo'rayev

---

2021-02-18 19:59:44